

XIZR NAZARI TUSHGAN YURT ALLOMALARI



O'zbekistonning barcha hududlari, xususan tarixiy tamaddunga boy o'lkalari butun dunyoga mashhur bo'lgan ta'rifu tavsiflari, o'ziga xos epitetlar bilan dovrug' qozongan. Ularning bu dovrug'i nafaqat zohiriy ko'rku salobati sababli, balki ma'naviy olam ustunlari hisoblangan allomayu avliyolari tufayli hamdir. O'zining peshqadam allomalari bilan shuhrat qozongan shunday maskanlarimizdan biri Samarqand hisoblanadi. "Boburnoma"da o'qiyimiz: "Rub'i maskunda Samarqandcha latif shahr kamroqdur... Sahobadin Qusam ibn Abbos anda borg'ondur. Samarqandni Iskandar bino qilg'ondur. Mo'g'ul va turk ulusi Semirkand (Semizkand) derlar. Temurbekdin burun Temurbekdek ulug' podshoh Samarqandni poytaxt qilg'on emastur... Hazrati Risolat zamonidin beri ul miqdor aimmai islomkim, Movarounnahrdin paydo bo'lubtur, hech viloyattin ma'lum emaskim, muncha paydo bo'lmish bo'lg'ay. Shayx Abu Mansurkim, aimmai kalomdindur, Samarqandning Motrid o'tliq mahallasidindur".

Samarqand ta'rifini haddi a'losiga yetkazgan Bobur Alisher Navoiy va uning davri adabiy hayotini ham nozikbin adabiyot tanqidchisi kabi tavsiflaydi. "Boburnoma"ni o'qir ekanmiz, XVI asr boshlarida Hirot maktabi vakillari, xususan Husayn Boyqaro va Navoiy hamda uning atrofidagi saroy a'yonlarini Boburchalik turkiy tilda to'liq va to'g'ri ta'rifu tavsif qilgan adib bo'lmasa kerak, deb o'ylaymiz. Bizningcha, Oybek ham o'z romanini yozishda ko'proq "Boburnoma"ga tayangan bo'lsa ajab emas.

Adabiyot nazariyasida biror maktab vakillarini tanqidiy (ijobiy va salbiy) ruhda ta'riflash boshqa bir maktab vakillari tomonidan amalga oshirilishini hisobga olsak, Boburdek adabiyot vakilini Samarqand adabiy maktabiga mansub deb qarashimiz mumkin. Zero, birinchidan Bobur Movarounnahr viloyati hukmdorlaridan biri edi. Movarounnahr esa "Boburnoma"da o'zi "Shahri Samarqanddur, viloyatini Movarounnahr derlar", deb yozganidek ushbu viloyatning poytaxti bo'lgan. Xuddi Xurosonning poytaxti Hirot bo'lgani kabi va asosiy adabiy maktab o'sha shahar nomi bilan yuritilgani kabi, mazkur davrdagi Movarounnahr adabiy maktabini Samarqand maktabi deya atash o'rinlidir.

Aytish mumkinki, Amir Temur asosini qo'yib berib ketgan sayqali ro'yi zamin bo'lgan Samarqand nafaqat adabiy, balki boshqa sohalarida ham ildam markaz hisoblangan va yillar osha o'z peshqadamligini qo'ldan boy bermay kelmoqda. Bu holatni XX asr birinchi yarmidagi adabiy hayot, xususan navoiyshunoslik tadqiqotlari ham tasdiqlashi mumkin. Jumladan, xuddi Bobur mirzo kabi adabiyotshunoslar haqida o'z xotiralarini bitib ketgan andijonlik yozuvchi Ahmadrafiq Qambarov "Navodir ul-vaqoye yoxud zamonamiz fozillari hayotidan hikoyatlar" kitobida shunday hikoya qiladi: "Bu hikoya shoir Imodiddin Ulfat tomonidan do'stlar davrasida va navoiyxonlik kechalarida

ko'p marta so'zlangan bo'lib, men uni xotira tariqasida yozib olgan edim. Barchaga manzur bo'lgan bu hikoya aytuvchining nazaridan o'tkazilgan va uning mazmuni quyidagicha.

1939-yil. Olimxon Sharafuddinov, Mirza Abdulla Nasriddinov Bokiy, Muhammadxon maxsum Mahjuriy, Abdulahad Anisiy va Imodiddin Ulfat Navoiy komitetida "Xamsa"ning bir qancha noyob nusxalarini bir-biriga solishtirish, asos qilib olingan matnga taqqoslash yo'li bilan uning akademik nashrini tayyorlayotganlarida xat namunalarining beqiyos go'zalliklarini e'tirof etish bilan birga xattotlarning xatolarini tuzatishga harakat qilgan edilar. Ana shunday ish bilan mashg'ul ekanliklarida xonaga qandaydir bir kitobni ko'tarib G'afur G'ulom kirib keladi. Salom-alikdan so'ng cho'ntagidan yondaftarchasini oladi va:

– "Farhod va Shirin"ni tarjima qilayotib ikki so'zning ma'nosini topa olmadim, — deydi. Hammaning diqqati o'ziga qaraganligini ko'rgan G'afur aka o'sha so'zlarni aytadi: – G'ULB va IZORA.

*Qilib suv g'ulbiga sher oshkora,
Birinng mundek ilkida xora, –*

debdi Navoiy.

O'rta sukunat cho'kadi. Olim Sharafuddinov tikka turgancha xayolga cho'madi. Bokiy domla kitobini bir chetga oladi, Mahjuriy tafakkurga beriladi. Hamma mazkur so'zning ma'nosini topishga harakat qiladi. "Qilib suv g'ulbiga sher oshkora"ni pichirlab takrorlaydilar.

– Baytning o'zida noaniqlik borgan o'xshaydimi? – deydi Anisiy.

– Qo'limda sakkizta lug'at bor, – deydi G'afur aka, – hammasini ko'rib chiqdim, lekin bu so'zlarni topa olmadim.

Tirik qomus hisoblanuvchi Bokiy domla ham, bilimdonlikda undan qolishmaydigan Mahjuriy ham "lom-mim" deya olmay turardi. Hamma bu so'zlar-

ni yondaftarlariga yozib oladilar va uyga borganda qarab topmoqlikka kelishadilar. Oradan bir necha kun o'tsa hamki, uning ma'nosi izohlanmay qoladi. Shu kunlarning birida Samarqanddan kelgan Sadridin Ayniy komitetga kirib qoladi.

– Ahvollar yaxshimi? Nima ishlar bo'lyapti? – deb so'raydi.

U Toshkentga kelganda albat Navoiy komitetiga kirar, ishning borishi bilan qiziqib, zarur maslahatlar berardi. Shuning uchun ham Olim Sharafuddinov u kelishi bilan "G'ulb" va "Izora"larning qanday ma'no anglatishini so'raydi. Sadridin Ayniy shunday javob qiladi:

– "G'ulb" deb quvurni aytadi. Ilgarilari podshoh bog'laridagi yo'laklarga quvur ko'milardi. "Farhod va Shirin" dostonida ham shunga ishora bor. Ya'ni quvurning bir tomoniga sher haykali o'rnatilgan. Uning og'zidan tushib turadigan suv o'sha g'ulb bilan bog'liq. Keyin devor tomonga o'giriladi-da:

– "Izora" quruvchilar ishlatadigan ibora, – deydi. – Devorning chiziq tortilgan trafareti ham o'shanga o'xshaydi. Tushunarlimi? – Oxirgi "i" harfini cho'zib talaffuz qiladi.

– Juda tushunarli. Rahmat! – deydi hamma".

Asli Buxoroning Sektore qishlog'idan bo'lgan Sadridin Ayniy ham aynan Samarqand adabiy maktabi vakili edi.

XXI asr boshlaridagi navoiyshunoslik boshida ham aynan Samarqand adabiy maktabining yirik namoyandasi, ustoz olim Shuhrat Sirojiddinovdir. Domlaning bu maqomga erishishida donishmand olimlardan biri, Samarqand adabiy maktabining yirik vakili akademik Botirxon Valixo'jayevning hissasi ulug'dir. Xojagon tariqatining asoschilaridan Hazrati Abdulxoliq G'ijduvoni ustoz Yusuf Hamadoni haqidagi manolibida yozadi: "Ul zot Salmoni Forsiyning asosi va sallasini saqlardilar. Yangi oy kurganda Samarqand peshvolarini chaqirar, ular bilan shariat ilmidan bahs o'tkazardi. Samarqand ulug'lari ham uning suhbatidan bahramand bo'lardilar. "Xojayi zindadilon" – Xojayi Xizr a.s. bilan suhbat qilardi". Parchadan ikkita muhim narsani anglash mumkin. Birinchidan, Samarqand peshvolarining doimo ilm-u adab bahsida peshqadam ekanligini, ikkinchidan, bu yerda Hazrati Xizrning majlis qurib, shogird tayyorlaganini ko'rish mumkin. Shu sabab ham Hazrati Xizr masjidi hozir ham Samarqand tepaligini bezab turibdi. Demak, Hazrati Xizr poyqadami yetgan bu maskan olim-u ulamolar yurtidir. Agar Shohi Zinda majmuasining orqa tomoniga o'tilsa, qanchadan qancha akademik olimlarning xoki poklariga ko'zingiz tushadi, bu ham ushbu zamin azal-azaldan yirik olimlar maskani bo'lganiga dalolatdir. Birgina Ulug'bek mirzoning shuhrati butun olamdan tashqari, ko'notni ham zabt etgan.

Ustoz Shuhrat domla bilan men

2000-yillarda, Imom al-Buxoriy xalqaro jamg'armasiga maqola olib borgan kezlarda tanishgandim. Shu yillari u "Imom al-Buxoriy" xalqaro jamg'armasi boshqaruvi raisining o'rinbosari sifatida faoliyat olib borardi. Shu-shu maqola bahonasida uning manbalar to'g'risidagi boy suhbatlarini olish maqsadida jamg'armaning "Imom al-Buxoriy saboqlari" jurnaliga tez-tez boradigan bo'lib qoldim. Sababi, manbashunos olim har galgi suhbatida tesha tegmagan yangiliklar ulashar edi. Natijada biz ustoz-shogirddek bo'lib qoldik.

Ustoz Sirojiddinov nafaqat yurtimizdagi nodir qo'lyozmalarni "titkilagan", balki xorijdagi katta muzey va kutubxonalarga ham borib, ko'plab qo'lyozmalarni olib kelgan manbashunos olimdir. Domla bir gal o'zining kuni kecha Angliyaning mashhur qo'lyozmalar muzeyidan qaytganini va bir qator kitoblarning elektron nusxalarini olib kelganini xursand bo'lib gapirgan edi. Keyin bilsam, Oksford universitetiga ilmiy safari chog'ida mashhur Bodlean kutubxonasi, Britaniya muzeyi va Oksford universiteti Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondidagi qo'lyozmalarni ko'rib, o'rganib kelgan ekan. Domla Navoiy davri manbalari bilan juda yaqindan tanish, shu davrning ko'pchilikka noma'lum qirralarini ham o'rgangan. Suhbatlarida shu davrdagi tazkiralarga ko'proq e'tibor qaratish, forsiy manbalardagi jumalarni to'g'ri tarjima qilishni aytar edilar.

Domla, nafaqat ilmiy yo'nalishda, balki pedagogik yo'lda ham ustozimdir. Chunki uning sharofati bilan men universitet, aniqrog'i, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida faoliyatimni boshlaganman. Ya'ni, Sirojiddinov domla 2005-yili Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'limiga ishga kirishimga, keyinchalik esa "O'zbek tili" kafedrasida ishlashimga sababchi bo'lgandilar. Uning sharofati bilan kuchli ma'naviyat va ma'rifat sohibi ustoz Muzrob Turdiyevga shogird bo'ldim, Shuhrat Ko'chimov, Rahmon Farmonov singari o'z sohasining bilimdon ustozlari bilan birgalikda ishlashga muyassar bo'ldim. 2006-yili esa nomzodlik dissertatsiyasini yoqlaganimda ham domla rasmiy opponent sifatida o'z qimmatli fikrlarini ayamadi va manbaning mohiyatiga chuqur kirib borish uchun uni to'g'ri tarjima va talqin qilish kerakligini uqtirdi.

Xulosa qilib aytganda, zamona-miz manbashunoslari sarvari, ustoz Shuhrat Sirojiddinov o'z ilmiy, pedagogik hamda tashabbuskorlik faoliyatlari bilan Alisher Navoiyning haqiqiy merosxo'ri, izdoshi sifatidagi yuksak pog'onalarni bosib o'tayotgan davrimiz adabiyotshunosligining fidoyisidir. Shu ma'noda biz shogirdlar ustozning umriga yanada baraka, o'zlariga mustahkam sihat-salamatlik tilab qolamiz.

Jasurbek MAHMUDOV,
filologiya fanlari doktori,
O'ZMU dotsenti